



## I S T E ' M O L B O Z O R I


(dastlabki ma'lumot)

2018 yil yanvar-fevral

Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanish korxonalarini qo'shgan holda) 2018 yilning yanvar-fevral oylarida 679,5 mlrd.so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,6 foizga oshdi.


Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 19,3 foizni tashkil etdi. Iste'mol tovarlari, tamaki mahsulotlari, benzin va alkogolli ichimliklarga bo'lgan talabning oshishi yirik korxonalarning o'sish sur'atini o'tgan yilning shu davriga nisbatan 59,3 foizga ko'payishiga olib keldi.

### *2018 yil yanvar-fevral oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda )*



Chakana savdo tovar aylanmasi (umumovqatlanish korxonalarini qo'shma-gan holda) hajmida katta ulushga ega bo'lgan Urganch shahri (39,9 foiz), Xazorasp tumani (14,0 foiz), Urganch tumani (7,6 foiz) ni tashkil qilib chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi.

### Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga o'tgan yilga nisbatan 103,0 foizni tashkil qilib, 376,5 ming. so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar-fevral oyida 296,4 ming. so'mni tashkil qilgan edi).

O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Urganch shahri (1940,9 ming. so'm), Xazorasp tumani (393,2 ming. so'm) va Gurlan tumanida (354,0 ming. so'm) kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 8,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 5,1 foizga oshdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 1,2 foizni tashkil etdi.

### **Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi**

Shahar va tumanlar	Ming. so'm	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Urganch shahar	1940,9	125,1
Xiva shahar	209,1	-
Bog'ot tuman	179,8	93,4
Gurlan tuman	354,0	96,5
Qo'shko'pir tuman	168,5	91,6
Urganch tuman	275,9	94,3
Xazorasp tuman	393,2	97,4
Xonqa tuman	207,2	92,1
Xiva tuman	105,6	54,7
Shovot tuman	222,0	92,5
Yangiariq tuman	293,4	95,0
Yangibozor tuman	169,0	85,2

## O'TGAN DAVRLARDA KICHIK TADBIRLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 95,7 foizgni tashkil qildi..

Umumi chakana savdo tovar aylanmasining 71,1 foizini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik umumi tovar aylanmasining deyarli 65,6 mlrd. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 9,7 foizni tashkil etdi.



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish, tashqi iqtisodiyfaoliyat va savdo statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: B. Tillayev  
(0371) 230-80-42